

## Alla - ona qalbi armug'oni

Joriy yilning 24-yanvar kuni soat 18-30 da 4-sonli talabalar turar joyida Gidromelioratsiya fakultetining "Xotin-qizlar qo'mitasi" raisi Z.Beknazarova va "Fizika-kimyo kafedrasini" professor o'qituvchilari dotsent I. Sapayev, dotsent A. Axmedov, dotsent K. Komilov, dotsent Qurbanova. A, A. Karimov lar bilan hamkorlikda qizlar o'rtasida " Qizlarni onalikka tayyorlash" mavzusida "Alla aytish" konkursi o'tkazildi.



Bu musobaqada 1-kurs talaba qizlari Karimova Shodiya, Axmadova Durdona , 3-kurs talabasi Mamajonova Fotimalar ishtirok etdi. Talaba qizlarimiz alla qo'shig'ini maroq bilan ijro etishdi va barchani qalbini larzaga keltirdi. Bundan ta'sirlanib 2-kurs talabasi Qurbongul Qoroqolpoq tilida "Alla" qo'shig'ini juda go'zal ijro etdi. Tanlovda ishtirok etgan qizlarimizga xotin-qizlar qo'mitasi raisi tomonidan qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi va "Fizika-kimyo" kafedrasini professor o`qituvchilari tomonidan shirinliklar ulashildi.



**4-TTJ tarbiyachi pedagogi A.Xaitova axboroti**

**Institut Matbuot xizmati Rahimboy Jumaniyozov**